

**QASHQADARYO VILOYATI HUDUDIDA UMUMTA'LIM
MAKTABLARINING RIVOJLANISH TARIXI. (G'UZOR TUMANI
MISOLIDA)**

Ne'matov Shavkatjon Boymurod o'g'li

Qarshi davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada Qashqadaryo viloyatida xususan, G'uzor tumanidagi 1924-1991-yillarda umumiy o'rta ta'lim maskanlarining ahvoli yoritilgan. Bu davrda viloyatdagi ta'lim tizimidagi yutuq va kamchiliklar, o'qitish tizimining ortda qolganligi, o'quv xonalarining yetishmasligi, ta'limning siyosiy maqsadlarga yo'naltirilganligi atroflicha yoritilgan. Shuningdek, G'uzor tumani hududida aholi sonining oshib borishi natijasida maktab ta'limiga bo'lgan ehtiyoj ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar : G'uzor, boshlang'ich maktab, o'quv maskanlari, zarur o'quv qurollari, o'quv binosi, moddiy-texnik baza, kapital ta'mirlash

Аннотация. В статье рассматривается состояние учреждений среднего образования в Кашкадарьинской области, в частности в Гузарском районе, в период 1924-1991 годов. Подробно освещаются достижения и недостатки системы образования в регионе за этот период, отсталость системы образования, нехватка учебных классов и ориентация образования на политические цели. Также указывается необходимость школьного образования в связи с ростом населения в Гузарском районе.

Ключевые слова: Гузар, начальная школа, учебные учреждения, необходимое учебное оборудование, учебное здание, материально-техническая база, капитальный ремонт.

Abstract. The article covers the state of secondary education facilities in the Kashkadarya region, in particular in the Guzar district, in 1924-1991. The

achievements and shortcomings of the education system in the region during this period, the backwardness of the education system, the lack of classrooms, and the orientation of education to political goals are covered in detail. Also, the need for school education as a result of the population growth in the Guzar district is indicated.

Keywords: *Guzar, primary school, educational facilities, necessary educational equipment, educational building, material and technical base, capital repairs.*

Dastlabki yillarda rayonimizda o'qish va o'qitishning mukammal tarmoqlari rivoj topmagan edi. Sobiq Buxoro amirligiga qarashli hozirgi G'uzor rayonida 1917-24 yilgacha 50 talabalik bir madrasa va bitta "usuli qadim" boshlang'ich maktablari bo'lib, ular Eskibog', Afg'onbog' va Qo'shtepa qishloqlarida joylashgan edi. Mazkur dargohlarda bilimi olishi zarur bo'lgan yoshlarning atigi 20 foizigina jalb etilgandi xolos. 1925-27 yillarda rayondan eski maktablar o'rniga yangi tipdagi maktablar tashkil topdi.

G'uzorda tuman markazida dastlab to'liqsiz o'rta maktab, keyinchalik yagona o'rta maktab sifatida uzoq yillardan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotgan 1-sonli maktab faqatgina g'uzorliklarning emas, yaqin-atrofdagi tumanlar aholisining hayotida ham katta rol o'ynagan. 30-yillar boshida mehmonxona bo'lgan bu muassasa peshtoqiga 1936 raqami yozib qo'yilgan edi¹. 1925-1926 o'quv yilida Qashqadaryo oblastining Behbudiy (Qarshi), G'uzor rayonlarida 3 ta qizlar maktabi tashkil etildi va ularda o'qiyotgan o'quvchilar soni 51 nafarni, 1927-yilda esa uning soni 91 nafarga yetdi². Bu davrda rayonda ta'lim sohasida kamchiliklarga ham yo'l qo'yildi. 1926-yilda, Qashqadaryo oblastining Tangiharam (Dehqonobod), Beshkent, Yakkabog' rayonlarida hamda Kitob rayonining Varganza, G'uzor rayonining Afg'onbog' qishloqlarida 3 yillik maktablar binosi qurilishi belgilangan bo'lsa-da, ammo 1928-yilga kelib ham bu maktablar qurilishi amalga oshirilmadi.³

¹ Нуриддинов. Ҳ. Ғузорликлар Тошкент-2014-Б.61-78.

² Қашқадарё ВДА, 7-фонд, 1-рўйхат. 1-йиғма жилд, 11-варақ.

³ Қашқадарё ВДА, 7-фонд, 1-рўйхат. 156-йиғма жилд, 42-варақ.

1928-yillarda rayonimizda 17 ta maktab ochilib, bu bilim dargohlariga, 425 bola jalb etilgan. Shu yillarda mazkur maktablarda Aziz Haydarov, Hamro Haqqulov, Solih Ashurov, Karim Berdiyev, singari o'qituvchilar faoliyat ko'rsatishgan. 1930-31 yillarga kelib, rayonda maktablar soni 21 taga yetadi. Ularga tortilgan o'quvchilar soni 2700 nafarni tashkil qilgan. Shu yillari yosh avlodni tarbiyalashdek ma'suliyatli ishni ado etgan ustoz murabbiylardan Zoyir Ostonsov, Ziyoyev, singarilarni iftixor bilan tilga olishga haqlimiz.

1936-yilda Qashqadaryo okrug ijroiya komiteti o'qituvchilarni qayta tayyorlash borasida qaror qabul qildi. Qaror asosida Qarshi shahrida 1-2 oylik yozgi kurslar tashkil qilindi. Kurslarda o'qitish uchun rayonlardan malakali o'qituvchilar jalb qilindi. Xususan G'uzor rayonidan ham R. Badayboyev mashg'ulotlar olib bordi.⁴ Ikkinchi jahon urushi oqibatida ta'lim tizimiga ajratilayotgan mablag'lar miqdori biroz kamaytirildi. O'z-o'zidan ravshanki, mablag'larning asosiy qismi urush xarajatlari uchun ajratildi. Ammo urush boshlanishi arafasida ham maktab ta'lim tizimida katta muammolar mavjud edi. Jumladan, shahar maktablarida o'qish yoshidagi barcha o'quvchilarni qamrab olish imkoniyati bo'lmagan bo'lsa, qishloq hududlarida esa maktablarning o'zi yetarli darajada emas edi. Shu sababli ham maktablar faoliyatini yaxshilash uchun o'qituvchilarning yordami va aholi ko'magida qurish va ta'mirlash ishlari olib borildi. Xususan, Qashqadaryo oblastining shahar va rayonlarida ham mazkur jarayonda ishlar tashkil etildi. G'uzor rayoni Chug'urtma qishloq sovetidagi Bolshevik dehqon xo'jaligi a'zolari kuchi bilan yangi maktab binosi qurildi. Pachkamar qishloq sovetidagi Lenin nomli dehqon xo'jaligida ham xuddi shunday yangi maktab binosi qurib ishga tushirildi. Sinf xonalari yetmagan maktablarda qo'shimcha sinf xonalari qurildi.⁵ Urush yillari 1941-1945 yillar nemis-fashist bosqinchilariga qarshi kurash davrida ham rayonimiz maorifchilari o'z burchini astoydil bajarishga imkon topgan. 1948-49 o'quv yilida birinchi marta Pushkin nomli o'rta maktabning 10-sinfini 28 ta o'quvchi (shundan 7 nafari qizlar) bitirib chiqishgan. 1960-yillarga kelib rayonimiz

⁴ ҚВХА, 34-фонд, 1-рўйхат, 906-йиғма жилд, 1-варақ.

⁵ Болтаев. М. Ғузур раёнида мактаблар аҳволи // Қашқадарё ҳақиқати 1950-йил 28- декабрь № 257.Б-2

maktablarida tehsil olayotgan o'quvchilar soni 12497 taga yetgan. Shu yillarda birgina Lenin nomli kolxozning o'zida bitta 320 o'rinli maktab binosi qurib foydalanishga topshirilgan. Shuningdek Qo'ybishev nomli sovxoz territoriyasida ham yangi 700 o'rinli "Internatsional" maktabi ishga tushgan. G'uzor rayoni hududida 1967-yilda rus va o'zbek tilida o'qitilib kelingan 1-maktab ikkiga bo'linib, rus tilida o'qitiladigan yangi maktab tashkil qilindi, unga 6-son raqami va G'afur G'ulom nomi berildi. Maktabga bir necha yil Polina Yefimovna Haytovich rahbarlik qilgan bo'lsa, keyinchalik shu maktabda ta'lim olib, o'qituvchilik qilayotgan Chaktab Sergeevna Tamayeva direktor vazifasida uzoq yillar ishlagan⁶.

1967-1968 o'quv yilida rayondagi aksariyat maktablarda sinfdan sinfga ko'chirish va maktabni tamomlash imtihonlariga ancha barvaqt kirishilgan. Bu sohada Pushkin nomli, Oktabr, Ilich nomli, Kalinin nomli maktab kollektivlari ayniqsa namunali ishlarni amalga oshirgan. Bu bilim o'choqlarida takrorlash darslari yuksak saviyada o'tkazilgan, o'quvchilar bilimni chuqurlashtirishga imkon beradigan barcha tadbirlar amalga oshirilgan. Imtihonlar va konsultatsiyalar jadvali o'z vaqtida tuzib chiqilgan, imtihonlar o'tkazish tajribali pedagoglarga topshirilgan. Alohida xonalar ajratilib, ularda o'quvchilar pedagoglar rahbarligida imtihonlarga tayyorgarlik ko'rganlar. Shu tufayli mazkur maktablarda sinfdan-sinfga ko'chirish va tamomlash imtihonlari yaxshi natijalar bilan yakunlangan⁷.

1967-yili G'uzor rayon territoriyasi, pioner lagerlarida 1215 o'quvchi, maktablar qoshidagi sog'lomlashtirish maydonchalarida 600 o'quvchi dam olgan, ekskursiya va poxodlarda 500 ga yaqin o'quvchi ketgan. 1967-1968 o'quv yilida esa 2000 dan ortiq o'quvchilar dam oladi. 700 o'quvchi sog'lomlashtirish maydonchalarida hordiq chiqaradi. 1200 o'quvchi poxodlarga chiqadi. 250 dan ortiq bola respublika bo'ylab uyushtiriladigan sayohatlarda ishtirok etadi. O'quvchilarning yozgi kanikulni maroqli o'tkazishlarini ta'minlash maqsadida ko'pgina lagerlar barvaqt tayyorlab qo'yilgan. Ular zarur inventarlar va tarbiyachilar bilan to'la ta'minlangan. Bundan tashqari o'quvchilarni zarur o'quv

⁶ Нуриддинов. Ҳ. Ғузорликлар Тошкент-2014-Б.61-79.

⁷ Раҳмонов. Н. Қамашиликлар изидан // Қашқадарё ҳақиқати . 1968 йил 18 июнь № 117.Б-2

qurollari bilan ta'minlash, pedagoglar malakasini oshirish sohasida ham muhim tadbirlar amalga oshirilgan. O'tgan yili rayon bo'yicha 116 o'qituvchi malaka oshirish kurslarida ishtirok etgan bo'lsa, 1967-1968 o'quv yilida 260 pedagog seminarlarga va kurslarga qatnashib o'z malakalarini oshirishi rejalashtirilgan. Bundan tashqari maktablarni yangi o'quv yiliga barvaqt taxt qilib qo'yish va o'quv yilini muvaffaqiyatli boshlab yuborishga erishmog' lozim. Rayondagi Telman nomli, Kirov nomli, Xamid Olimjon nomli. «Pravda». «Kommunist» maktablarida remont ishlari allaqachon boshlab yuborilgan. Ularda sinf xonalarini remont qilish, inventarlarni taxt qilib qo'yish ishlari tezkorlik bilan olib borilgan. 1967-1968 o'quv yilida rayondagi 17 maktabda kapital va 74 maktabda joriy remont o'tkazilishi rejalashtirilgan. Gogol nomli, A. Matrosov nomli, «Qahramon» maktablari uchun yangi binolar bunyod etilishi rejalashtirilgan. K. Marks nomli, Tereshkova nomli, Hamid Olimjon nomli maktablar qoshida 50 ga yaqin qo'shimcha sinf xonalari qurilgan. Ma'lumki, maktablarni yangi o'quv yiliga barvaqt va sifatli tayyorlashda otaliq tashkilotlari muhim rol o'ynaydilar. Rayondagi ko'pgina otaliq tashkilotlarining pedagogik kollektivlarga yordamlari katta bo'lgan. Masalan, Lenin nomli kolxoz territoriyasida bitta o'rta, to'rtta sakkiz yillik maktab bor. Kolxozda 3 ta maktab uchun tipovoy bino otaliq tashkilotlar yordami bilan qurilgan.

1968-1969 o'quv yiliga maktablarni barvaqt tayyorlashga befarq qarayotgan xo'jaliklar ham yo'q emas. Masalan, Kirov nomli, «Dehqonobod» «Oqrobot» sovxozlari territoriyalaridagi maktablarni kapital va joriy remondan o'z vaqtida chiqarishga, ularni zarur inventarlar bilan ta'minlashga mazkur xo'jaliklarning rahbarlari e'tiborsizlik bilan qarab kelgan⁸.

1977-1980 o'quv yillarida rayon maktablarida yoshlar to'liq umumiy ta'limga tortilgan. O'quvchilar soni 19502 taga yetgan. Barcha ta'lim maskanlarida o'qitishning ilg'or metodlari joriy etilgan. Keyingi yillarda maktablar qurilishi va ularning moddiy texnika bazasini boyitishga alohida e'tibor qaratilgan. 1984-yilga kelib rayonda 52 ta maktab faoliyat yuritgan. Yoshlarga tajribali pedagoglar davr talabiga mos mukammal bilim bergan.

⁸ Раҳмонов. Н. Қамашилиқлар изидан // Қашқадарё ҳақиқати . 1968 йил 18 июнь № 117.Б-2

1980-yillar boshida G`uzor rayonida shahar aholisining soni keskin ko'payib ketganligi sababli yangi hovli- joylar qurish uchun yer ajratila boshlandi va mitti tumanlar tashkil qilindi. Yosh oilalarning bu maskanga ko'chib kelishlari ularning bolalari uchun yangi maktab va bog'cha qurish zaruratini tug'dirdi. 1987-yilda yangidan qurilgan 53- maktabga yosh, g'ayratli Noroy Xolto'rayeva rahbar qilib tayinlandi. U butun kuch-g'ayratini maktabning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga, obodonlashtirishga, fan kabinetlarini tashkil qilishga sarfladi. Maktab qisqa vaqt ichida yaxshi natijalarga erishdi, ayniqsa, iqtidorli bolalar bilan ishlashga e'tibor qaratildi. Shu maktabning o'quvchisi O'ktam Alimardonov o'z iste'dodi bilan ko'pchilikni hayratda qoldirdi, yettinchi sinfda o'qib yurgan kezlari matematika fani bo'yicha Samarqandda o'tkazilgan si- novlarda yuqori sinf o'quvchilari bilan bellashib, g'oliblikni qo'lga kiritdi va Ulug'bek nomidagi stipendiyani olishga sazovor bo'ldi. Keyinchalik Novosibirsk shahrida o'tkazilgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarining o'quvchilari ishtirokida o'tkazilgan olimpiadada yurtimiz sharafiga himoya qildi. Maktabda bunday o'quvchilarning izdoshlari ko'paydi.

Xulosa qilib aytganda G`uzor rayonida umumta`lim maktablar qurilishi, unda yosh avlodning ta`lim-tarbiya olishiga, bilimli bo'lib kamol topishiga O'zbekiston SSR tuzilgan dastlabki davrlardan e'tibor qaratilgan. Maktablar moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, o'quvchilarni yangi darsliklar bilan ta'minlash hamda dam olish vaqtlarida yoshlarni ekskursiyaga chiqarish, aholi sonining oshishi natijasida o'quvchilar uchun qo'shimcha maktab binolari qurish o'z davri talabiga yarasha amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Нуриддинов. Ҳ. Ғузорликлар Тошкент-2014-Б.61-78.
2. Қашқадарё ВДА, 7-фонд, 1-рўйхат. 1-йиғма жилд, 11-варақ.
3. Қашқадарё ВДА, 7-фонд, 1-рўйхат. 156-йиғма жилд, 42-варақ.
4. ҚВХА, 34-фонд, 1-рўйхат, 906-йиғма жилд, 1-варақ.
5. Болтаев.М . Ғузор раёнида мактаблар аҳволи // Қашқадарё ҳақиқати 1950-йил 28- декабрь № 257.Б-2
6. А. Ерназаровнинг "Ғузор беклигида ижтимоий-иқтисодий ва маданий жараёнлар" номли диссертацияси